

SEMIOTIK BELGILAR VA ULARNING TABIATI

Ergashaliyeva Havoxon¹¹ Namangan davlat pedagogika instituti 1-kurs magistrantiShavkatjon Abdurahmonov¹¹ O'qituvchi: Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.06.2025

Revised: 14.06.2025

Accepted: 15.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

semiotika, belgi
,paradigma, ikon, indeks, simvol,
signifier, signified, tabiiy
va sun'iy belgi, Pirs ta'limoti

Ushbu maqolada semiotik belgilar tushunchasi, ularning shakllanishi, funksiyasi hamda tabiati tahlil qilinadi. Semiotika fanining asosiy kategoriya va tamoyillari asosida belgilar tizimining paradigmatic xususiyatlari yoritiladi. Ayniqsa, til tizimida belgilar qanday ishlashi, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi roli haqida fikr yuritiladi. Maqola tilshunoslik, madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida semiotik yondashuvni qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi.

KIRISH. Zamon taraqqiy etib borgan sari madaniyat, insonlarning dunyoqarashi hamda ilmiy tadqiqotlar, bilimlar ham rivojlanib boradi. Semiotika fani ham XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik, falsafa, adabiyotshunoslikda muhim ilmiy yondashuv sifatida shakllandi.

Tilning semiotik tabiatini o'rganadigan fan semiotika deb nomlanadi. Semiotika belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot sifatida belgilarni, hodisalarni, ularning tabiati, mohiyati kabilarni o'rganadi. Semiotikada ikki turdagi, ikki tipdagi belgilar farqlanadi, ya'ni tabiiy belgilar (yoki belgilar –priznaklar) va sun'iy belgilar (yoki belgilar – informatorlar). Semiotikada belgi va tushunchalar munosabatlari o'rganiladi. Matndagi belgilar sistemasi tilning semiotik tabiatini taqozo etadi. Belgilar tabiiy va sun'iy belgilarga bo'linadi. Tabiiy belgilarga telefonga SMS kelganda chalinadigan gudoklar, yomg'ir yoki

qor yog'ishidan oldin osmonga to'plangan quyuq bulutlar kiradi. Bu belgilar ongimizda ma'lum tushunchalarni uyg'otadi. Sun'iy belgilar shartli belgilardir. Shartli belgilar axborot almashinuvga xizmat qiladi. Kommunikativ belgi sifatida til belgilar hisoblanadi. Sun'iy belgilar so'z, gaplar kabi kommunikativ ma'no ifodalaydi. Tilni tafakkur va jamiyat bilan bog'laydi. Signallar, belgilar, mimika kabi yordamchi aloqa vositalari qo'llanish doirasining chegaralanganligi bilan tildan farq qiladi. Til jamiyat faoliyatining hamma sohasida eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi.

Avvalo, semiotika — bu belgilar tizimi va ular orqali yuzaga keladigan ma'no yaratish jarayonini o'rganuvchi fan sohasi. Har bir til tizimi semiotik belgilar orqali quriladi va bu belgilar inson tafakkuri, madaniyati hamda ijtimoiy ongining mahsulidir. Semiotik belgilarni biz har kuni har qadamda ko'rishimiz mumkin. Masalan, oddiy, yo'l belgilari.

Semiotik belgilar dastlab ikki asosiy turga bo'linadi; *signifier* va *signified*. Signifier-belgi tashuvchi, signified-ma'no. Bu tushuncha F. de Sossyur tomonidan taklif etilgan bo'lib, keyinchalik Ch.S. Pirs, R. Barthes, Y. Lotman kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Pirs ta'limotiga ko'ra, belgilar yana uchga bo'linadi. Bular: ikonalar; indekalar; simvollar.

Ikonalar – o'xshatishga asoslangan belgilar (masalan, rasmlar). Indeksar – sabab-oqibat munosabatiga ega belgilar (masalan, tutun – olov belgisi). Simvollar – kelishuvga asoslangan belgilar (masalan, til birliklari). Bundan tashqari jamiyatdagi har qanday belgi barcha uchun tushunarli bo'lsagina, u o'ziga xos semiologik sistemani (ishoralar sistemasini) hosil qiladi. Bu turdagi belgilar shunga o'xhash boshqa belgilardan farq qiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek yo'l belgilari ham o'ziga xos ishoraga ega, ammo bu belgilar faqat yo'l haydovchilari va shu doiradagi insonlar uchun tushunarli. Shuning uchun bu belgilarni ijtimoiy hodisa sifatida qabul qilib bo'lmaydi, Aniqroq qilib aytganda bu ishoralar ruhiyat bilan bog'lana olmaydi. Yo'ldoshev va Sharipovlarning keltirishicha, semiotika lingvistikaga ham juda yaqin bo'lib, inson tilini o'rganadi.

Semiotik belgilarning paradigmatic tabiati. Paradigmatic munosabatlar – bu belgilar orasidagi tanlash asosidagi munosabatlardir. Har bir belgi boshqa belgilarga nisbatan turgan o'rnida ma'no anglatadi. Masalan, “ko'z”, “quloq”, “og'iz” kabi belgilar inson a'zolarini ifodalaydi va ular bir-biriga qarama-qarshi emas, balki paradigmatic bog'liqdir. Til tizimida paradigmatic munosabat orqali ma'no tafovutlari yuzaga keladi. Bu tafovutlar bir xil o'ringa ega bo'lgan so'zlar o'rtasida tanlash munosabatini ifodalaydi. Paradigma belgilarni sistemali ravishda tushunish imkonini beradi. R. Jakobsonga ko'ra, til tizimida ikki asosiy munosabat mavjud:

Paradigmatik (tanlash)Syntagmatik (qo'shish).Bu ikki munosabatni farqlash semiotik tahlilda muhim ahamiyatga ega.Semiotik belgilar har doim muayyan kontekst ichida ma'no kasb etadi. Masalan, qizil rang yo'l belgilarida to'xtashni bildiradi, biroq sharqona madaniyatda u baxt yoki tantana ramzi bo'lishi mumkin. Yana qo'shimcha qilish mumkinki,adabiyotda biror asar yoki she'rda keltirilgan qora rang-musibat, o'lim, yovuzlik kabi belgilarni ifodalasa, psixologiyada esa jimlik va abadiyatni anglatadi.Xalq tilida bo'lsa bu rang motam belgisidir.

Yuri Lotman belgilar tizimining madaniy kodlar bilan bog'liqligini ta'kidlab, semiosfera tushunchasini kiritgan. Uning fikricha, madaniyat o'z-o'zini belgilar orqali tashkil qiladi. Har bir madaniyat o'ziga xos semiosferaga ega va bu semiosfera ichida belgilar tili orqali tafakkur, estetik qarashlar shakllanadi.Masalan,Avstraliya davlatining umumiy belgisi- „Kenguru“.Amerikanki esa oq rangli „burgut ".Nega ayna bu belgilar tanlangani bizga noma'lum bo'lsa ham o'sha madanyatga mansub qatlamlar uchun tushunarlidir.Semiotik belgilar tili va tafakkurning ajralmas bo'lagi bo'lib, ularning tabiati murakkab va ko'p qatlamlidir. Belgilar nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy ong, madaniyat va ideologiyaning ko'zgusidir. Shunday ekan, semiotik yondashuv nafaqat tilshunoslikda, balki adabiyot, san'at, ommaviy madaniyat tadqiqotlarida ham samarali qo'llanilishi mumkin.

